

TESTLARDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARNING TAFAKKURLARINI O'STIRISH

Sh.K.Maxkamov

Andijon davlat universiteti akademik litseyi

Matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Hozirda, oliy ta'lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda umumta'lim maktablarida o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini o'stirishda testlardan foydalanilmoqda. Shuning uchun maktablarda testlar tuzishda o'quvchilarni fikrlash jarayoni oshiruvchi test topshiriqlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kalit so'zlar. Test, kalit, grafik, mantiqiy fikrlash

Test deb inglischada "test" so'zini ma'nosi bo'yicha ixtiyoriy sinovni, ixtiyoriy tekshiruvni aytish mumkin. Bunday keng ma'noda "Test" termini texnikada, biologiyada, medetsinada va ximiyada qo'llanilishi mumkin. Pedagogikada, Psixologiyada test deb odamlarning ayrim xususiyatlarini qiyosiy o'rganish uchun ishlatiladigan va qiyin hamda bajarish vaqtlarini normallashtirilgan vazifalar, topshiriqlar to'plamiga aytiladi. Bunday topshiriqlar –ya'ni "testlar" yordamida abutirentlarni bilimlarini taqqoslash mumkin.

Test bilimlarni o'lchash instrumenti sifatida qo'llaniladi. Shuning uchun test aniq va qattiq uslubiy talablarni qanoatlantirishi shartdir. Demak tasodifiy tuzilgan topshiriqlar to'plamini test deb bo'lmaydi.

Test yordamida o'quvchilarni bilimlari aniqlanib hamda taqqoslanganligi uchun qandaydir o'lchov birligidan foydalanish kerak. Shuning uchun odatda testni natijasi sifatida belgilangan vaqt ichida to'g'ri bajarilgan topshiriqlar soni olinadi. Shuning uchun testga kiritilgan topshiriqlarning qiyinligi bir xil bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bu ko'rsatkichni tekshirish uchun test topshiriqlari maxsus guruhlarda sinab ko'rilishi kerak va zarur bo'lsa unga o'zgartirish kiritilishi kerak. Ammo amalda bir xil qiyinlikka ega bo'lgan testlarni tanlash qiyin, bunga intilish kerak.

Albatta shuni esda tutish kerakki, testlar universal va hamma narsani o'lchayoladigan instrument bo'lolmaydi. Testni va uni har bir topshirig'i bir biriga o'xshash bo'lgani uchun, o'quvchilar o'zlashtirishi va tushinishining chegaralangan belgilari to'plamini aniqlashga qaratilib, bu belgilar qancha kam bo'lsa, test natijalarini interpretatsiyasi shuncha ravshan bo'ladi va u o'z funksiyasini shuncha yaxshi bajaradi.

Testni albatta qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib uning topshiriqlari shakllantirishi lozim. Topshiriqlar qo'yilgan maqsadlarga to'la mos tushishi

kerak, ya'ni u o'quvchilardagi aniqlashi ko'zda tutilgan bilimlarni o'lchashga xizmat qilishi kerak. Albatta, test yordamida o'quvchilardagi bizni qiziqtirgan ko'p qirralarni xisobga olish, qolaversa o'lchash imkoni mavjud bo'lmaydi.

Aniqroq aytsak, o'quvchidagi aniq mazmunga ega bo'lmagan qirralarni test bilan aniqlash obyektini bo'lishi mumkin emas. Ikkinchi tomondan ustalik bilan tuzilmasa, u faqat o'quvchini u yoki bu ma'lumotlarni taniy olish qobiliyatini aniqlovchi bo'lib qoladi. Bunday testlar o'quvchini o'zlashtirishini yuqori bosqichlarini aniqlab bermaydi. Lekin, test to'g'ri tuzilsa va ishlatilsa hech qanday usul bilan aniqlab bo'lmaydigan ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Testning afzalliklaridan biri unda ifodasini topgan topshiriqlar to'plami, agar ular yaxshi muloxaza qilib tuzilgan bo'lsa qisqa vaqt ichida o'quvchidagi, predmet yoki ayrim mavzu bo'yicha, bilimlar, tushunishlar, va shu kabi xususiy belgilarni boshqa usullarga nisbatan yaxshiroq aniqlab beradi.

Testning yana bir muhim ustunligi –uning obyektivligidir.

Test topshiriqlari qisqa, ravon va aniq bo'lishi kerak.

Qisqaligini taminlash uchun, savolda ishlatiladigan so'zlarni, belgilarni, girafiklarni shunday tanlash kerakki ularni eng ozini kiritib topshiriq mazmunini eng yuqori darajada ifodalash kerak.

So'zlarni qayta-qayta ishlatish, kam foydalanilgan va tanish bo'lmagan so'zlarni ishlatish, savolni tushinishni qiyinlashtiradi. Agar, savol 1tadan oshiq bo'lmagan ergash gapdan iborat bo'lsa yaxshi bo'ladi.

Test topshiriqlarini shunday tuzilgan bo'lishi kerakki ularning ba'zilari boshqalaridan birortasini javobini o'z ichiga olmasin.

Test shakllarini tanlashda ularning mazmuni va ma'lumotlari bilan to'ldirilganligi e'tiborga olinishi kerak. Sodda test topshiriqlari “xa” – “yo'q” yoki “to'g'ri” – “noto'g'ri” javoblardan birini belgilashga qaratiladi. Bunday alternativ javobli test topshiriqlarida “odatda shunday”, “ba'zi hollarda” kabi noaniq javob kiritiladigan savollar berilmasligi kerak.

- Sinalayotgan o'quvchi oson lekin javoblarni taxlil qilish murakkabroq bo'lgan shakli – topshiriqqa “qo'shimcha qilish” yoki “uni davom ettirish” kerak. Bu talab odatda, javoblardagi variantlarda taklif qilinganlardan tanlash orqali amalga oshirilishi mumkin.

- Javoblarni tanlash bilan yechiladigan topshiriqlar bilishliknigina emas balki tushunganlikni aniqlovchi testlar bo'ladi.

- Bunday vazifalarga javob sifatida sonlar, grafiklar, jadvallar, matnlar va boshqalar ishlatilishi mumkin.

- Ba'zi hollarda yuqoridagi ma'lumotlarni topshiriqni o'zida ishlatish mumkin.

- Test topshiriqlari javoblariga xatoligi aniq, hamda topshiriq mavzusiga mutlaqo mos bo'lmagan javoblarni kiritish kerak emas, chunki o'quvchi ularni darhol payqaydi va javoblarni topish ma'lum darajada osonlashadi.

Testlar o'zlarining mazmuniga, tarkibiga ko'ra Gomogen, getrogen, integrativ, adaptiv turlariga bolinadi.

Gomogen va getrogen testlar ananaviy testlar guruhiga mansubdir. Ma'lumki bunday testlar baholanuvchilarni bir xil ajratilgan vaqtlarda, bir xil topshiriqlarga, bir xil sharoitlarda, bir xil baholash kriteriyalarida javob berishini ta'minlovchi bilimlarini diagnostika usulu xisoblanadi.

Bunday testlarni qo'llashdan asosiy maqsad baholanuvchilarni namoyon etgan bilimlar darajasi bo'yicha bir biriga nisbatan reytingini tuzish.

Bu holda testga "kim nima biladi" savoliga emas "kim ko'proq biladi" savoliga javob beriladi va uni topshiriqlari soni imkoniyat darajasida oz bo'lishi kerak.

Ananaviy testlarni asosiy g'oyasi-eng oz topshiriqlar yordamida tezlik bilan sifatli ravishda iloji boricha ko'proq o'quvchilarni bilimlarini taqqoslashdir.

Ananaviy testlar - eng kamida quyidagi 3ta tizimini birligidan tashkil topadi.

— o'quv predmedini "tili" yordamida ifodalangan bilimlarning mazmuniy tizimi.

— qiyinligi oshib boruvchi topshiriqlarni formal tizimi.

— topshiriqlar va sinaluvchilarni statistik harakteristikalari tizimi.

Gomogen testlar — bu qiyinligi ortib boruvchi, maxsus shakllarga ega bo'lgan va ma'lum mazmundagi topshiriqlar tizimi bo'lib bu tizim-o'quvchilarga biron bir piredmet yoki uni bo'limi, yoki uni bitta mavzusi bo'yicha bilimlari darajasini obyektiv, sifatli va samarali o'lchash maqsadida barpo etiladi.

Getrogen testlar — bu qiyinligi ortib boruvchi, alohida ko'rinish, shakllari va ma'lum mazmunga ega bo'lgan topshiriqlar tizimidan iborat bo'lib — u o'quvchilarni bir nechta, yoki shaxsiy sifati bo'yicha tayorgalik darajasini aniq, sifatli, obyektiv o'lchash, aniqlash uchun barpo etiladi.

Bunday testlar ko'proq bitiruvchilarni, inistutga kiruvchilarni bilimini o'lchashga qo'llaniladi. Har bir getrogen test, gomogon testlardan tashkil topgani uchun uni natijasini aniqlashda har bir gomogen testni mavzusi yoki yo'nalishiga umumiy bo'limlarda yoki test maqsadidagi o'rniga qarab, difer koiffitsientlar kiritish amalda qo'llaniladi.

Integrallashgan testlar — Bu shakllarga javob beruvchi test qiyinligi ortib boruvchi topshiriqlar tizimidan iborat bo'lib, umumiy o'rtatalim maktablarini tayyorgarligini umumiy diognostika qilishga mo'ljallangan. Bu testning har bir topshirig'iga to'g'ri javob topish uchun 2ta va undan ko'proq predmet bo'yicha bilimlar talab qiladi.

Ammo bunday test topshiriqlarini shakllantirish uchun o'qituvchining o'zi ham bir qancha predmetni yaxshi bilishi kerak.

Adaptiv testlar. Bunday test topshiriqlarini qiyinligi darajasi aniq bo'lib ular oshib borish tendentsiyasida tuziladi. Topshiriqlar asosan kompyuterlarda bittadan taklif qilinadi. Agar noto'g'ri javob bo'lsa undan keyin topshiriq berilmaydi, chunki buni bilmagan o'quvchi keyingilarni bilmaydi. (keyingi savolni berishda, mantiq yo'q).

Ma'lumki yangi ta'lim texnologiyasi, har bir mavzuni o'qitish maqsadini, o'quvchilar faoliyatida namoyon bo'ladigan xislatlar shaklida rejalashtirishni ko'zda tutadi. Bunda qo'yilgan umumiy maqsadlar, xususiy maqsadlarga bo'linishi kerak. Bu xususiy maqsadlar aniq, ravshan va o'quvchilarni shunday faoliyatida ifodalansinki, uni ishonarli o'lchash yoki aniqlash mumkin bo'lsin.

Testning yana ajoyib xususiyatlaridan biri uni yechayotgan o'quvchi topshiriqlarni, shartlarini bajarayotganda o'zidagi ma'lum bilimlardan foydalanib ishlaydi. Bu jarayonida yana qo'shimcha o'ylashga, fikrlashga, ijodiy izlanishga majbur bo'ladi. Bunday izlanish o'quvchining ta'savvur doirasini, dunyo qarashini, mantiqiy fikrlashini kengaytiradi. Bunday psixologik harakat jarayonida o'quvchining ongi o'sadi.

Test topshiriqlarini ko'plab yechgan o'quvchilar turli masalalarni yechishda oson yo'l topadigan, mantiqiy fikrlab ta'savvur qilaoladigan bo'ladi.

Barcha, mavjud pedagogik topshiriqlar ikki turga-test va test bo'lmagan topshiriqlarga bo'linishi mumkin.

Test bo'lmagan topshiriqlar – bularga masalan savollar, misollar, mashqlar, krossvordlar, va shunga o'xshashlar kiradi. Ba'zida shaklan testga o'xshash, lekin mazmunan test talablariga javob bermaydigan topshiriqlar mavjud bo'ladi. Bular ham ushbu guruhga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Algebra va matematik analiz asoslari. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun sinov darsligi / Abduxamidov A.U., Nasimov X.A., Nosirov U.M., Xusanov J.X. -T.: O'qituvchi, 2001.1 qism.-343 b.
2. Algebra va matematik analiz asoslari. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun sinov darsligi / Abduxamidov A.U., Nasimov X.A., Nosirov U.M., Xusanov J.X.-T.: O'qituvchi, 2002. II qism-367 b.
3. Alixanov S. Matematika o'qitish metodikasi.-Toshkent:O'qituvchi,1992.-200b.